XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 31 - dekabr VI-33-72-5-70-K/21 Konimex tuman hokimligi

Konimex tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq xalq deputatlari Konimex tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Konimex tumani mahalliy byudjetining 2022-yil uchun daromadlari 24730,7 mln.so‘m, xarajatlari 71970,8 mln.so‘mga tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Konimex tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi mo‘ljallari **1-ilova**ga muvofiq, 2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi **2-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun Konimex tumani mahalliy byudjetidan 2022-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun Konimex tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat

soliqlaridan ajratmalar normativlari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022-yil uchun Konimex tumani mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi **5-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun viloyat byudjetidan Konimex tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari **6-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022-yil uchun Konimex tumani mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 679,0 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Konimex tumani mahalliy byudjetining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Konimex tumani byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi buudjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarning zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

2022-yil uchun Konimex tumani mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **7-ilova**ga muvofiq belgilansin.

9. Konimex tumani bo‘yicha 2022-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan erlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar **8-ilovaga**, yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar **9-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

10. Xalq deputatlari tuman Kengashiga keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan er uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalariga tegishlicha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni hududlarda joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha

vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda qo‘yidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i, tamaki va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilingan 63 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) viloyat byudjeti hamda tuman byudjetlari o‘rtasida taqsimlash hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘idan tushumlar viloyat byudjeti hamda tuman byudjetlari o‘rtasida taqsimlash **4-ilova**ga asosan.

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Elmuratov), tuman Moliya bo‘limi, Davlat soliq inspeksiyasi (R.Tursunov) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

tuman mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (R.Tursunov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

er solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali er va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman soliq inspeksiyasi (R.Tursunov), Kadastr agentligi bo‘limi (S.Eleushinov) 2022-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (R.Tursunov) tuman hokimligi bilan

birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi boshlig‘i (N.G‘offorov) tuman soliq inspeksiyasi (R.Tursunov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (S.Risbekov), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning er va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish va monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

18. Tuman hokimligi:

Tuman byudjetining jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman Xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Elmuratov), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilot boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

21. Mazkur qaror “Kenimex tani” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

23. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman

Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.Egamqulov**

Халқ депутатлари Конимех туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-33-72-5-70-K/21-сон қарорига
1-илова

Tumanning 2022-yilgi tumanning yalpi hududiy mahsulot bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2022 yil uchun prognoz
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	X
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	X
3.	Ist’emol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	X
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	107,9
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	105,2
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	110,1

Халқ депутатлари Конимех туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-33-72-5-70-K/21-сон қарорига
2-илова

Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Mikdori (ming so‘m)
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	0,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	5 968 700,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	5 000,0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
6	Aksiz solig‘i, jami	0,0
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	0,0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 025 000,0
9	Yuridik shaxslar er solig‘i	0,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	1 419 000,0
11	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	4 596 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 843 000,0
13	Davlat boji	0,0
14	Jarimalar	0,0
15	Ijara to‘lovi	0,0
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0
17	Yig‘imlar	0,0
18	**Taqsimlanuvchi daromadlar**	**5 874 000**
	shu jumladan:	
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	2 223 000
2	Tamaki maxsulotlari aksiz solig‘i	2 385 000
3	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	1 266 000
JAMI Daromad		**24 730 700,0**

Халқ депутатлари Конимех туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-33-72-5-70-K/21-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarining umumiy cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, Jami		**71 970 753,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	71 970 753,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	**0,0**
1	**Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**4 925 006,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 925 006,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Tuman Xalq ta’limi bo‘limi**	**8 282 066,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 282 066,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Tuman Tibbiyot birlashmasi**	**23 693 870,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	23 693 870,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Tuman Madaniyat bo‘limi**	**1 350 363,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 350 363,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Tuman Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**1 370 758,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 370 758,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Tuman Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi**	**738 259,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	738 259,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 293 864,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 293 864,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Tuman Irrigatsiya bo‘limi**	**865 382,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	865 382,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**361 315,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	361 315,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari kengashi**	**149 023,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	149 023,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Konimex tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**9 757 213,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 757 213,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Tuman Moliya bo‘limi**	**829 623,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	829 623,0
	shu jumladan: saqlash xarajatlariga	829 623,0
	Fuqarolarga etkazilgan zararni qoplash	
	Viloyatdan tuman va shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan transfertlar	
	Indeksatsiya mablag‘lari	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi**	**2 047 060,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	386 158,0
	Qishloq va mahalla fuqarolar yig‘inining saqlash xarajatlari	1 660 902
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Tuman hokimligi**	**16 223 161,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	16 223 161,0
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	2 213 898,0
	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	93 534,0
	Hokimliklarning zahira jamg‘armalari	678 969,0
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	261 260,0
	Bolali oylalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	9 335 697,0
	Tuman Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	171 655,0
	Tuman ijtimoiy moslashish markazi	73 301,0
	Fuqarolar tashabbusi jamgarmasi	3 394 847,0

Халқ депутатлари Конимех туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-33-72-5-70-K/21-сон қарорига
4-илова

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslar-dan olinadigan er solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslar-dan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalan-ganlik uchun soliq	Yakka tartibdagi tadbirkor-lar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i
1	Konimex tumani	100	100	10	100	100	100

Халқ депутатлари Конимех туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-33-72-5-70-K/21-сон қарорига
5-илова

2022-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI	**24 730 700,0**	**71 970 753,0**
Konimex tumani	24 730 700,0	71 970 753,0

Халқ депутатлари Конимех туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-33-72-5-70-K/21-сон қарорига
6-илова

Tuman mahalliy byudjetining 2022-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

Tuman	**Tartibga soluvchi transfert miqdori (ming so‘mda)**
JAMI	**47 240 053,0**
shundan	
Konimex tumani	47 240 053,0

Халқ депутатлари Конимех туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-33-72-5-70-K/21-сон қарорига
7-илова

Tuman mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

T/r	Hudud nomi	Miqdor (ming so‘mda)
	JAMI	**311 686,0**
	shundan	
1	Konimex tumani	**311 686,0**